O‘QITUVCHILAR FAOLIYATINI VA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING YANGICHA MEXANIZMINI JORIY ETISHNING INNOVATSION TOMONLARI

Raxmatova Dildora Sadriyevna - Zarmed universiteti Boshlang‘ich ta’lim, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda ta’lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish, xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz va Hukumatimiz tomonidan qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tomonlaridan 2018-yil 14 avgust kuni “Yoshlarning ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3907-son qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qaror va farmonlar ijrosini to‘liq va sifatli ta’minlash bevosita pedagog kadrlarning saviyasi va salohiyatiga bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda belgilab berilgan vazifalar va qo‘yilgan maqsadlarga erishish - vazifalarni amalga oshirish mexanizmining to‘g‘ri tanlanishiga ham bog‘liqdir.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish yuzasidan quyidagi takliflarni keltirib o‘tmoqchimiz:

Xalq talimi tizimini takomillashtirishda nimalarga ahamiyat berish lozim?

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimini baholashni inson omiliga bog‘lamaslik ya’ni inson omilini keskin cheklash.

Buning uchun o‘quvchi bilimini baholash mexanizmini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida amalga oshirish. Bunda o‘quvchi chorak yakunida tegishli fan bo‘yicha yagona markazlashgan elektron bazada joylashtirilgan materiallardan test sinovlari topshiradi. Ushbu yagona elektron baza DTM tizimiga o‘xshagan bo‘lib, respublika miqyosida yagona markazlashgan holda tashkillashtiriladi. Test jarayonlarini o‘tkazish tumanlar markazlarida faoliyati tugatilgan kollejlar binosida amalga oshiriladi (har bir tumanda bittadan kollej tanlanadi). Bunda albatta test materiallarining xavfsizligi (axborot xavfsizligi) masalasiga jiddiy e’tibor qaratish talab etiladi.

Buning uchun umumta’lim maktabining 8-sinfidan boshlab har bir o‘quvchiga alohida “portfolio” (“Elektron chemodan”) ochiladi. Chorak yakunida tegishli fanlardan test/imtihon topshiradi va test/imtihon natijalari o‘quvchining maktabni tugatguniga qadar yig‘ilib boriladi. Bunda har o‘quvchining baholanishida nisbiylik tamoyillaridan voz kechib, aniqlik va adolatlilik tamoyiliga amal qilinadi. Chunki, har bir o‘qituvchining (“5”, “4”, “3”) baho qo‘yish mezonlari bir-biridan farq qiladi. Taklif

etilayotgan mexanizmda o‘quvchining bilimi yagona etalon bo‘yicha baholanadi. Bu tartib o‘quvchiga ham o‘qituvchiga ham yuqori darajada mas’uliyat yuklaydi.

Bunda respublikamizning barcha umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning bilimi yagona “Tarozi” asosida o‘lchanadi. Bu esa ta’lim sifatining oshishi va shu bilan birga, respublika umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish imkonini beradi va respublika bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasi ahvoli haqida tezkor ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoni yaratiladi.

O‘quvchilarning har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rtacha qiymatidan kelib chiqib, shu fandan dars bergan o‘qituvchining oylik maoshi miqdorini belgilash imkonini beradi (KPI). Mazkur taklif etilayotgan baholash menxanizmi o‘qituvchining o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi va samarali bilim berishi uchun “iqtisodiy richag” sifatida xizmat qiladi. Bunda har bir o‘qituvchi mehnati mahsuliga yarasha maosh oladi, o‘quvchining portfoliosida fanlarning o‘zlashtirish qo‘rsatkichi bilan birgalikda iqtidorini namayon qiluvchi qo‘shimcha parametrlar (sport bo‘yicha yutuqlari, xorijiy tillarni bilishi va hokazo) hamda tanlovlarda, fan olimpiadalariga erishgan yutuqlari alohida punktlar bo‘yicha kiritib boriladi. Natijada o‘quvchining fanlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va shaxsiy yutuqlari, iqtidori faqat ota-onasi, pedagogik jamoaga emas, balki hammaga aniq namoyon bo‘ladi.

Portfolioda yig‘ilgan ballar bo‘yicha o‘quvchi Oliy ta’lim muassasasiga (OTM) to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish amaliyotini joriy qilish taklif etiladi. Masalan, meditsina yo‘nalishi bo‘yicha kimyo, biologiya, ona-tili, ingliz tili fanlaridan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 85 foizdan yuqori bo‘lgan o‘quvchilar oliy ta’lim muassasasiga tanlovsiz qabul qilinadi. Chunki respublika bo‘yicha barcha o‘quvchilar yagona elektron bazada baholanadi. Bu jarayonda hech qanday e’tirozga o‘rin qolmaydi.

“Oltin medal”, ”Kumush medal”ga tavsiya qilingan o‘quvchilarni tanlab olishni ham portfoliodagi ko‘rsatkichlarga tayangan holda amalga oshirish taklif etiladi.

Agar yuqoridagi baholash mexanizmi amalda qo‘llanilsa, o‘qituvchi butun mehnati va mehrini o‘quvchiga bag‘ishlab, jon-jahti bilan bilim beradi. Chunki ish joyini saqlab qolish masalasi ta’lim bergan o‘quvchilarining ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘z-o‘zidan savodi, layoqati pastroq bo‘lgan o‘qituvchilar yoki o‘z ustida jiddiy shug‘ullanishga majbur bo‘ladi yoki ta’lim tizimidan chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Ushbu tizimni joriy etish natijasida Tuman, shahar Xalq ta’limi boshqarmalarida shtatlarning ancha qisqartirilishiga erishish mumkin.

Har bir o‘quvchiga chorak yakunida har bir fandan imtihon testini topshirish amaliyotni joriy etish taklif etiladi. Birinchi marta testda yaxshi natija ko‘rsata olmagan o‘quvchi uchun ikkinchi marta test topshirish tegishli to‘lovni amalga oshirish orqali ruxsat etiladi. Bu esa baholash mexanizmini tashkil etishdagi xarajatlarning ma’lum qismini qoplaydi.

Bunday mexanizm puxta ishlab chiqilib, joriy etilsa, inson omili ishtirok etmasligining hisobiga hech qanday ko‘zbo‘yamachilik, soxtakorlik, sun’iylikka xoxlagan taqdirda ham erishib bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, mazkur mexanizmda o‘quvchi 11-sinfni tugatmasdan turib ham “portfolio”da ballari tegishli oliy o‘quv yurtiga kirishga yetarli bo‘lsa, talabalikka qabul qilish amaliyotini joriy qilish masalasi ham taklif etiladi. Nima uchun iqtidori o‘ta yuqori bo‘lgan o‘quvchi hamma qatori 11-sinfni tugatgandan so‘ng attestat olishini kutib, vaqtini sarflashi kerak?

Misol uchun, Davlat tomonidan 10-15 nafar 11-sinfni tugatgan o‘quvchilarni Xorijning texnika yo‘nalishi bo‘yicha biror bir nufuzli OTMga o‘qishga yuborilishi kerak bo‘ladigan bo‘lsa, xorijiy tillarni (kamida uchta xorijiy tilni) mukammal biladigan, matematika, fizika, kimyo, informatika fanlaridan 90 foizdan yuqori o‘zlashtirgan o‘quvchilarni tanlab olish mumkin bo‘ladi. Ular Xorijdagi nufuzli OTMda o‘qib, malakali mutaxassis bo‘lib yetishadi. Kelajakda Oksford, Kembrij, Kaliforniya universiteti kabi yetakchi unversitetlar ham bizning baholash tizimimiz qat’iy va odilligiga tan berib, O‘zbekiston uchun malum kvotalar ajratilishiga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

Mazkur mexanizmni amaliyotga joriy qilish natijasida, xorijga o‘qishga yuborilgan o‘quvchilarimiz bilimi jihatdan hech kimdan kam emasligini isbotlashiga albatta erishamiz. Bundan tashqari, ushbu mexanizm tashkil qilinib, OTMga qabul jarayoni shu mexanizm asosida amalga oshirilsa, OTMlarga kirish uchun 15 kun davomida bo‘lib o‘tadigan test imtihonlariga ovvoragarchilik, xarajatlarga o‘rin qolmaydi deb hisoblaymiz. Barcha o‘quvchilar iqtidoriga, qobilyatiga yarasha oliy ta’lim muasasalariga shaffof ravishda tanlab olinishi taminlanadi. Respublika bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish orqali qaysi hududda ta’lim sifati ko‘rsatkichlari pasaysa, demak shu hududlarni yuqori saviyali o‘qituvchilarga ehtiyoji borligi kuzatiladi va bu holatlarning oldi olinib, samarali yechim topiladi.

Bunday yagona baza tashkil etilsa, masalan, matematika fani misolida olib qaraydigan bo‘lsak, 8-sinfdan boshlab har bir chorak bo‘yicha alohida test materiallari shakllantiriladi. Birinchi chorak yakunlanganidan so‘ng ikki hafta ichida o‘quvchi tuman markazida tashkil qilingan, respublika yagona elektron bazaga ulangan, axborot xavfsizligi ta’minlangan zamonaviy kompyuter hamda kuzatuv kameralari bilan jihozlangan, har tomonlama mukammal binoda sadoqatli, halol kuzatuvchilar ishtirokida onlayn tarzda test topshiradi. Test topshirish uchun Yagona markazlashgan bazadan ushbu muddat davomida har bir o‘quvchi uchun alohida login-parollar ajratilgan holda “ruxsat” (dostup) ochiladi. O‘quvchi to‘plagan balidan norozi bo‘lgan holatda bir haftadan so‘ng ikkinchi marta test topshirish yuqorida ta’kidlanganidek, belgilangan to‘lov asosida amalga oshiriladi.

Portfolioni shakllantirish vaqtida o‘quvchining biometrik parametrlaridan iborat (qo‘z qorachig‘i, barmoq izi) shaxsiy elektron kartalar joriy etiladi. Bu elektron kartada portfoliodagi barcha fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, xorijiy tillarni bilish darajasi, sportdagi yutuqlari va boshqa shaxsiy iqtidorini namoyon qiluvchi tegishli sertifikat va diplomlar kiritiladi.

Yuqorida qo‘rsatilgan yagona markazlashgan tartib asosida o‘quvchilarni baholash mexanizmini joriy qilish ota-onalar tomonidan ham ijobiy qabul qilinadi. Ota-onalar uchun farzandlarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini doimiy nazorat qilishlari va kuzatib borishlari uchun imkoniyat yaratiladi. Ko‘rsatkichlar pasaygan holda ota-onalar ham biz pedagoglar xoxlagandek, maktab bilan faol hamkorlikka kirishib ketadilar. O‘qituvchining faoliyatini rag‘batlantirish “iqtisodiy richagi” - o‘qituvchi dars bergan o‘quvchilarning o‘zlashtirish bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlariga bog‘lab qo‘yiladi. O‘qituvchining qancha maosh olishi uning ilmiy qobiliyatiga, layoqatiga va mehnatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu mexanizm o‘qituvchilarga motivatsiya berib, ko‘proq o‘z ustida ishlashga majbur qiladi. Har kim qobilyati va mehnatiga yarasha haq oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mamlakatimiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini va o‘qituvchining mavqeini uni moddiy jihatdan rag‘batlantirish bilan birga, ushbu kabi mexanizmlarni joriy qilish orqali mamlaktimizda sifatli har tomonlama raqobatbardosh kadrlar yetishtirilishi uchun ko‘makdosh bo‘lib xizmat qiladi hamda mustaqil O‘zbekistonimizning yanada gullab yashnashiga bir sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси (ЎзР Президентининг 29.04.2019 й. ПФ-5712-сон
2. Pedagogik mahorat.A.Xoliqov O‘quv qo‘llanma Toshkent «iqtisod-moliy a» 2010
3. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 3 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723 academic research, uzbekistan 769 www.ares.uz ta’lim sifati boshqaruvi va bu yo‘nalishdagi xalqaro modellarning o‘ziga xos xususiyatlari Saodat Abdurashidovna Toshtemirova, Chirchiq davlat pedagogika instituti Lochin G‘ayratovich Muxammadiev.
4. Toshkent davlat pedagogika Universiteti O‘zbekiston davlat jahon tillari univeriteti O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti Toshkent – 2017 boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy konferensiya 25 may, 2017 yil
5. 5.https://lex.uz/acts/5085887